



МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 5 2024

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5-сан 2024

сентябрь

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ

Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Мухаббат САЛАЕВА
Қаҳхор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



Davlatova M. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishda geometriya elementlarining o‘rni	348
Usmonova Q. S. Inklyuziv ta’limni boshlang‘ich sinflarda joriy etishning ahamiyati va samaradorli	353
Умарова З.А. “Бошлангич таълим педагогикаси”да оптимал бошлангич таълим турлари	357
Xayridinov B.K. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining boshqaruv kompetentliklarini rivojlantirishning mazmuni	363
Tilovova S.B., Matupayeva Sh.Z. Inklyuziv ta’lim amaliyotida samaradorlikka erishishning o‘ziga xos imkoniyatlari	366
Абдуллаев Б. М. Имконияти чекланган бошлангич синф ўкувчилари хукукий маданиятини шакллантириши педагогик муаммо сифатида	371
Urazmetova Sh.A. Imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	376
Kuchkinov A.Yu. Eko-steam yondashuvining tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish	383
Jabborova O.M., To‘rayeva G.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini shakllantirish tizimi	388
Xolmatova G.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatni shakllantiruvchi topshiriqlar	396
Tilanova S.B. Boshlang‘ich ta’limda steam yondashuv asosida raqamli texnologiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirish	400
Shaxmuradova D.A. O‘quvchilarda kritik va kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning nazariy asoslari	406
Арсланова Г.Дж. Современные педагогические технологии в начальном образовании	412
Пак С.В. Методика формирования профессиональных компетенций студентов в области математического развития дошкольников	419
Абдуллаева Л.У. Формирование компетенций педагогов по взаимодействию с родителями и социальными партнёрами в ДОО	430
Мирзорахимов О.К. Что такое игра для ребенка?	438
Дониёрова Л.Х. Совершенствование методики применения феминитивов в речи у будущих учителей начальных классов	444
Джанпесова Г.Э., Мубаракшина А.Р. Влияние музыкальных занятий на формирование познавательных способностей детей дошкольного возраста	450
Джанпесова Г.Э., Хакимова С.Х. Формирование социального опыта, связанное с развитием нравственных качеств у детей дошкольного возраста	454
Сейтмуратова В.Ш. Формирование культуры здорового образа жизни у детей старшего дошкольного возраста в ДОУ	457

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Sarsenbaev T.T. Me’morchilik vositasida talabalarning kasbiy-estetik kompetentligini rivojlantirish	462
Xalmuratov I.T. Qoraqalpoq amaliy san’ati asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish	468

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Usmonov N.B. O‘quvchi shaxsining ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash metodikasi	472
Ubaydova V.E. Yengil sanoat sohasida mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda olimlarning ilmiy tadiqotlar tahlili	476
Kamolov E.R. Noaniq to‘plam prinsipidan foydalаниb noaniq regulyatorlarni qurish	482
Orinbetov N.T. O‘quvchi yoshlarning fuqarolik pozitsiyasining ko‘rsatkichlari va darajalari	486
Matupayeva Sh.Z., Shoyusupova Sh.Sh. Talabalarning kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda cilil texnologiyasining integrativ imkoniyatlari	492
Давронова Д.С. Влияние национальных традиций на воспитание детей в узбекских семьях	497



INKLYUZIV TA'LIM AMALIYOTIDA SAMARADORLIKKA ERISHISHNING O'ZIGA XOS IMKONIYATLARI

Tilovova S.B.

*ChDPU, Boshlang'ich ta'lism metodikasi
kafedrasи o'qituvchisi*

Matupayeva Sh.Z.

ChDPU talabasi

Tayanch so'zlar: ta'lism, inklyuziv ta'lism, imkoniyati cheklangan bola, erkinlik, ota-onas, mutaxassis, muassasa.

Ключевые слова: образование, Инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями, свобода, родитель, специалист, учреждение.

Key words: education, Inclusive education, child with disabilities, freedom, parent, specialist, institution.

Резюме: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning o'ziga xos jihatlari va uning amaliyotda samaradorligiga erishishning didaktik imkoniyatlari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Резюме: В данной статье освещаются специфические аспекты инклузивного образования и дидактические возможности достижения его эффективности на практике.

Summary: This article highlights the specific aspects of inclusive education and the didactic possibilities of achieving its effectiveness in practice.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan inklyuziv ta'lism har bir bolaning ta'lism turini tanlashida erkinligi, oilada bo'lish huquqi, o'z uyi hamda mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan. Uyg'un tarzda tashkil etiluvchi mazkur ta'lism jarayoni ijodiy fikrlovchi, ilg'or metod va texnologiyalarni, pedagogik-psixologik diagnostika va pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo'llay oladigan yangi o'qituvchi va mutaxassislarni talab etmoqda.

Inklyuziv ta'lism muassasasining pedagog xodimlar faoliyatini tashkillashtirishda o'quv, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtira olishi. kasbiy mahoratini uzlusiz oshirishi uchun o'zgarib boruvchi zamon talablariga tezkor moslashib borishlarini taqozo etmoqda.



Juda ko‘plab davlatlarda alohida yordamga muxtoj bolalarni yuqori darajada kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to‘laligicha yo‘lga qo‘yish maqsadida umumta’lim maktablarida ta’lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minalash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minalash vazifalari belgilab berilgan .

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inklyuziv ta’limning o‘zi nima? - degan savolning tug‘ilishi tabiiy.

Inklyuziv ta’lim bu - sog‘lom va ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarning bir xil sharoitdagi, psixologik qulay, didaktik ta’minalangan, variativ yondashuvlar va tolerantlik munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-pedagogik o‘quv jarayonidir.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qo‘srimcha moslamalarning ishlab chiqarilishini va shu yo‘l bilan nogiron bolalar uchun qulay shart- sharoitlar yaratilishini talab qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta’lim-tarbiyasini amalga oshirishga, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ishlarni samarali olib borish uchun maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga inklyuziv ta’limning mohiyati, ahamiyati, ijtimoiy zarurligini tushuntirish ham mas’uliyatlari ishlar jumlasiga kiradi. Zero maxsus yordamga muxtoj bolalarning asosiy muammolarini ular o‘zları yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta’lim-tarbiya berish bilan hal qilib bo‘lmaydi.



Imkoniyatlari cheklangan jamiyat a'zolari sog'lom jamiyat a'zolari bilan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lmas ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish qiyin. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy masalalarini ko'rib chiqish, mutaxassislarни tayyorlash, ularning malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqilmoqda. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor.

Birinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar bilan bиргаликда o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, alohida ta'limga ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosida tarbiyalananadilar, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanada mehribonroq va e'tiborliroq, o'zganing g'amiga nisbatan sezgirroq bo'ladilar, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishni tabiiy hol deb biladilar. Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligini his qiladilar va ijtimoiy hayotga osonroq va ertaroq moslasha boshlaydilar. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim- tarbiyasida ota-onalar, pedagoglar, mutaxassislar, mahalla hamkorligida ish olib borishni talab qiladi.

Inklyuziv ta'lim bolani emas, ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo qiladi. Inklyuziv ta'limga nogironlikning ijtimoiy ko'rinishining hosilasi sifatida qarash mumkin. Nogironlikning ijtimoiy modeli barcha bolalarning individual-psixologik, o'zlashtirish xususiyatlari har xilligini hisobga olishni va maktab ta'limini barcha bolalarning imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Lekin inklyuzivlik-hamma bolani bir xil qilib qo'yish yoki "assimilyatsiya" emas. Uning mohiyati moslashuvchanlik ya'ni, bolalarning har xil tezlikda ta'lim olishini xisobga olib o'qituvchidan ushbu jarayonnni qo'llab-quvvatlashi uchun bilim va ko'nikmalar talab qilishdir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayoni inklyuziv ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishlari va faqatgina o'zları kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo'lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar bir turda bo'lishi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish metodlarini ularga moslashtirish, biroq aloqa o'rnatish sohasida muammolarga ega bo'lgan o'quvchilarni ular bilan uyg'unlashtirish ularning



ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o‘quvchilar bilan bir xildagi xatti-harakatlarni amalga oshirish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ta’lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda asta-sekin uyg‘unlashtirishdan iborat. Bunda o‘quvchilarning sinfdoshlari yoki guruhdoshlari bilan aloqa o‘rnata olishlari va o‘qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar taraqqiyotining ko‘lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta’lim jarayonini tashkil etish imkonsizdir. Bunday sharoitda ko‘plab o‘quvchilar ta’lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tarkibining turlitumanligi shuni ko‘rsatadiki, ularga ta’lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur ta’limga samarali tayyorlash uchun birinchi navbatda, maktab jamoasi tomonidan inklyuziya qadriyatlari tan olishi lozim. Bundan tashqari o‘qituvchilardan har bir bolaning cheklangan imkoniyatidan qat’iy nazar, uning rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish choralarini izlashga kasbiy yo‘nalganlik talab etiladi. Eng muhim, ta’lim muassasasining bolalardagi individuallikni qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushunish bilan bog‘liq inklyuziv madaniyatini shakllantirish ham muhim pedagogik shartlardan hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga turli variantlarda ta’lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan: O‘quvchining bilimlarni egallah imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta’lim beriladi. Bunday ta’limning mazmuni umumiy o‘rtta ta’limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o‘qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash talab etiladi. Mazkur yo‘nalishda o‘quvchilar o‘z tengdoshlari orasida bo‘lib, ular uchun cheklangan ta’lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O‘quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlar esa cho‘zilgan bo‘ladi. Jumladan, ko‘zi ojizo‘quvchilar uchun to‘qqiz yillik umumiy o‘rtta ta’lim jarayoni o‘n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun boshlang‘ich ta’limning maqbul varianti sifatida umumiy o‘rtta ta’lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o‘quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o‘qituvchilar, sinf



rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.

Inklyuziv ta'limning muhim ustuvorligi jamiyatning mustaqil, adolatli va barqaror rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bu usul, turli xil qobiliyat va zaruratlar bilan kelib chiqqan o'quvchilarni qo'llaydi va ularga o'zlarini rivojlantirish va o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun inklyuziv ta'lim qanchalik erta boshlansa, bu jarayonga pedagoglar maqsadli tayyorlansalar, jamiyatda ham inklyuziyaning samarador effektlariga erishiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohiba ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-son Qarori.
2. Ture Yonson. Inklyuziv ta'lim. Toshkent -2003.
3. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta'lim” uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.
4. L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. “Inklyuziv ta'lim” o'quv qo'llanma. Toshkent,2019
5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim. O'quv qo'llanma. Qo'qon-2023
6. Sh.Z.Matupayeva. Ta'lim klasteri sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent 2023.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ»

№ 5

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №